O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 24 - yanvar 36-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining navbatdagi oltmish to‘rtinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

I. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining navbatdagi oltmish to‘rtinchi sessiyasi 2024-yil 30-yanvar kuni soat 10-00 ga chaqirilsin.

II. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. Viloyatda qonunchilik holati va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida prokuratura organlari tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar yakuni hamda 2024-yilda ko‘riladigan chora-tadbirlar haqida.

2. Viloyatda jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish borasida ichki ishlar organlari tomonidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yakuni hamda 2024 yilda ko‘riladigan chora-tadbirlar haqida.

3. Viloyatda davlat organlari va tashkilotlarida norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti yuzasidan adliya organlari tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar yakuni hamda 2024-yilda ko‘riladigan chora-tadbirlar haqida.

4. Farg‘ona viloyat mahalliy byudjetining 2023-yildagi ijrosi haqida.

5. Viloyatda 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturini tasdiqlash haqida.

6. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil birinchi yarim yillik ish

rejasini tasdiqlash haqida.

Viloyat hokimi v.v.b **X.Sirojitdinov**